



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIAT RESURSLARI VAZIRINING BUYRUG'I

Davlat ekologik ekspertizasi markazi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PF-81-son farmoni hamda "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son Farmoni va PQ-171-son qarori (keyingi o'rinlarda – qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan tasdiqlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining (keyingi o'rinlarda – vazirlik) tashkiliy tuzilmasiga muvofiq, "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat unitar korxonasi negizida **"Davlat ekologik ekspertizasi markazi"** davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda – Markaz) tashkil etilsin.

Belgilansinki:

Markaz "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat unitar korxonasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha **huquqiy vorisi** hisoblanadi;

Markaz xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Markaz Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 15-uyga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz joylashtirilsin.

3. Quyidagilar:

a) Markazning ustavi **1-ilovaga**;

b) Markazning markaziy apparati tashkiliy tuzilmasi **2-ilovaga**;

Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallari tuzilmasi **2a-ilovaga**;

d) Markazning muhr, shtamplari, rasmiy xat blankalari **3-ilovaga**;

e) davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq muammoli va bahsli masalalarni hal etish bo'yicha vazirlik huzuridagi Ekspertlar kengashining nizomi va uning tarkibi **4-ilovaga**;

f) davlat ekologik ekspertizasi xulosasining rasmiy blankasi va uning ajralmas qismi hisoblangan ekspert xulosasi **5-ilovaga**;

g) davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etiladigan loyihalar sifatini baholash maqsadida loyiha ishlab chiquvchi tashkilotlarning reytingini shakllantirish to'g'risidagi nizom **6-ildavaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov):

Markaz ustavini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazsin;

ko'chmas mulk kadastr hujjatlarini tegishli ravishda qayta ro'yhatdan o'tkazish choralarini ko'rsin;

bir hafta muddatda Markazning mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tuzilmasiga muvofiq shtatlar jadvalini ishlab chiqib, ro'yhatdan o'tkazsin.

5. Belgilab qo'yilsinki:

a) davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish uchun taqdim etilayotgan materiallar bo'yicha Markaz va uning filiallari tomonidan tayyorlangan davlat ekologik ekspertizasi **xulosalariga**:

atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifaga mansub faoliyat turlari bo'yicha Markaz Bosh direktoriga;

atrof-muhitga ta'siri bo'yicha III va IV toifaga mansub faoliyat turlari bo'yicha Markazning hududiy filiallari direktorlariga **imzo qo'yish vakolati** berilsin.

Atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning I va II toifalariga mansub faoliyat turlari obyektlari qurilishi uchun yer uchastkalarini tanlash, ajratish materiallari, qurilish va ishga tushirish, texnologik o'zgartirishlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarishni kengaytirish va o'zgartirish bilan bog'liq loyihaoldi va loyiha hujjatlari belgilangan tartibda jamoatchilik eshituvlarida qo'llab-quvvatlangan taqdirda davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi belgilansin.

Vazirlik tomonidan jamoatchilik eshituvlari ommaviy axborot vositalari va blogerlar ishtirokida o'tkazilishi tartibi joriy etilsin.

"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasini berishdan oldin jamoatchilik eshituvida qatnashgan ommaviy axborot vositalari va blogerlarning internet tarmog'iga joylashtirgan havolalari muhokamasining natijasini inobatga olishi belgilansin.

Davlat ekologik ekspertizasining eksperti o'z vazifasini buyurtmachining huquqlariga yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon yetkazgan tarzda bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, shuningdek, ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunchilikni boshqacha tarzda buzganlik uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I toifaga va II toifaga mansub yangi obyektlarni loyihalashtirishda yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va (yoki) lokal suv tozalash inshootlari o'rnatilishi ko'zda tutilmagan loyihalarni **davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish** hamda qurilishi tugallangan ob'ektlarni, ularni o'rnatmagan holda **foydalanishga qabul qilish** man etiladi;

ilg'or xalqaro tajribadan kelib chiqib, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi (I-IV toifalar) xo'jalik yurituvchi subyektlarining faoliyatini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish jarayonida **uglerod neytralligini ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar** belgilanadi;

markazlashgan investitsiya loyihalari hamda atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I-II toifaga mansub faoliyat turlariga oid markazlashmagan investitsiya loyihalari belgilangan tartibda **davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladi**.

Eksperiment tariqasida **Hukumat tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq** atrof-muhitga ta'siri bo'yicha **III-IV toifaga** mansub faoliyat turlariga oid **loyihalar nodavlat tashkilotlari** tomonidan **davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi** mumkin.

6. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov), vazirlikning **Atmosfera havosini muhofaza qilish siyosatini yuritish bo'limi** (Kalimbetov), **Atrof-muhit monitoringi, gidrometeorologiya, iqlim o'zgarishi va cho'llanishga qarshi kurashish bo'limi** (Xaytboev) bilan birgalikda **2023-yil 1-oktabrga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini** ishlab chiqsin:

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar (atrof-muhitga ta'sir bo'yicha I-II toifalar) hamda vazirlik va idoralar, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlarning faoliyati (bino-inshootlari) natijasida hosil bo'ladigan issiqxona gazlari miqdori hamda uglerod izini (**carbon footprint**) hisoblash metodikasini ishlab chiqish;

tashkilotlarning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan issiqxona gazlari miqdori va **uglerod izi** ko'rsatkichlari pasportini ishlab chiqish majburiyatini belgilash;

belgilangan ko'rsatkichlar asosida uglerod izini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

tashkilotlarning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan issiqxona gazlari miqdori va uglerod izi ko'rsatkichlari pasportini binoga kirish qismi va o'zining rasmiy

veb-saytlarida e'lon qilib borish majburiyatini belgilash.

7. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov), vazirlikning **Xalqaro xamkorlik va grantlarni jalb etish bo'limi** (Talipov) bilan birgalikda:

a) 2023-yil 1-oktabrga qadar atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishning maqsadga muvofiqligi o'rganib chiqilsin. Bunda:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Orxus konvensiyasi kotibiyati vakillari ishtirokida O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan xalqaro davra suhbatlari natijalariga ko'ra vazirlik huzurida **"Orxus markazi"**ni tashkil etish choralari ko'rish;

xalqaro shartnomalarni **puxta tahlil qilib** o'rganib chiqish, iqtisodiy va huquqiy oqibatlarni prognoz qilish va o'rganish natijalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

b) tarmoq yoki hududiy rivojlanish bo'yicha ishlab chiqiladigan yangi strategiyalarning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga ta'sirini baholash bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi yangicha yondashuvni amaliyotga joriy qilish bo'yicha loyihalarni samarali amalga oshirilishi ta'minlansin.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlarida hamda Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda Toshkent viloyatida strategik ekologik baholash bo'yicha **pilot loyihalarini** amalga oshirish;

Strategik ekologik baholash tizimining huquqiy asoslari hamda institutsional va kadrlar salohiyatini yaratish bo'yicha tegishli ishlar tashkil etilsin.

d) atrof-muhitga ta'sirni baholash va davlat ekologik ekspertiza yo'nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va ekspertlarning **malakasini oshirish** bo'yicha o'quv-seminarlari va treninglar o'tkazilsin.

Bunda:

atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha **ko'p yillik tajribaga ega xalqaro konsultant va ekspertlar** bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda o'quv-seminarlar va treninglar tashkil etish;

ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarda xodimlarni **xalqaro o'quv-seminarlar va treninglarda** ishtirokini ta'minlash choralari ko'rilsin.

8. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov):

besh kun muddatda mazkur buyruq talablaridan kelib chiqqan holda xodimlarning mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Ishchi komissiya tuzsin;

Markaz va uning hududiy filiallari xodimlarini belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazsin;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq Markaz va uning hududiy filiallarini malakali kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'rsin.

9. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov), **"Eko-Media markazi" davlat muassasasi** (Ashurov) bilan birgalikda:

tadbirkorlarning davlat ekologik ekspertizasi bilan bog'liq murojaatlarini qabul qilish bo'yicha **"Call-markazi"** faoliyatini yo'lga qo'ysin;

2023-yil 1-oktabrga qadar atrof-muhitga ta'sirni baholashning elektron tizimini (www.eco.gov.uz) tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilish choralari ko'rsin. Bunda:

atrof-muhitga ta'sirni baholashning elektron tizimini (eco-service.uz) Davlat xizmatlari agentligi, Statistika agentligi, Soliq qo'mitasi, Markaziy bank hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat ro'yxatidan o'tish jarayonidan boshlab faoliyat turiga muvofiq ekologik baholash va me'yorlash talablari haqida xabardor qilish tizimini joriy etish;

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar reestrini (davlat hisobini) shakllantirish choralari ko'rish.

doimiy ravishda davlat ekologik ekspertizasi xulosalarini Vazirlik (www.eco.gov.uz) hamda Markazning (www.eco-service.uz) rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishini ta'minlasin (maxsus va harbiy obyektlar bundan mustasno).

10. Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Qurbonov), Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmalari tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosalarida belgilangan talablarning bajarilishini doimiy nazoratini olib borsin.

11. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi (Muxamedov), **Axborot siyosati masalalari bo'yicha vazir maslahatchisi** (Raxmanbaeva), **"Eko-Media markazi" davlat muassasasi** (Ashurov) bilan birgalikda:

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I va II toifalariga mansub faoliyat turlari obyektlarining atrof-muhitga ta'siri to'g'risida **jamoatchilik eshituvini** tashkil etish bo'yicha **e'lonlarni** ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda berilishini ta'minlashni tashkil etsin;

davlat ekologik ekspertizasining mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid **videorolik, maqolalar** tayyorlash hamda uning faoliyati bo'yicha brifinglar, matbuot anjumanlari, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etish choralari ko'rsin.

12. Devonxona mudiri (Yuldashev) mazkur buyruqni tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalarga ma'lumot va ijro uchun yetkazsin.

13. Buyruqning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Markaz Bosh direktori G'.Muxamedov belgilansin.

Ushbu buyruq ijrosini muhokama qilib borish, Markaz faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari O.Qudratov zimmasiga yuklansin.

Vazir

A. Abduxakimov

2023-yil "03" - iyun
154 - son



Mamonov
 Asliga to'g'ri:

